


# TURKİSTON

## ILK O'RTA ASRLARDA: TARIX VA TARIXIY GEOGRAFIYA (VI–VIII va IX–XIII asrlar)





**ORIENTAL UNIVERSITETI**  
**“IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR” KAFEDRASI**  
**PROFESSORI KAMOLIDDIN SHAMSIDDIN SIROJIDDIN O‘G‘LINING**  
**70 YILLIGI MUNOSABATI BILAN O‘TKAZILGAN “TURKISTON ILK**  
**O‘RTA ASRLARDA: TARIX VA TARIXIY GEOGRAFIYA (VI – VIII VA**  
**IX – XIII ASRLAR)” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY**  
**ANJUMAN TO‘PLAMI**

**TOSHKENT – 2025.**

<b>Alijonov Muslimbek Baxtiyorjon o'g'li - MUHOJIR ZIYOLILARNING "YOSH TURKISTON" JURNALIDA MUNAVVARQORI SIYMOSINING YORITILISHI.....</b>	<b>268</b>
<b>Nasirillayeva Nodirabegim Furqat qizi - ABDULLA NOSIROV VA AL-MARJONIYNING "G'URFAT AL-HAVOQIN" QO'LYOZMA NUSXASI HAQIDA.....</b>	<b>271</b>
<b>Муминов Темур Аброп угли – ИБРАГИМ МУМИНОВ - КАК ОСНОВАТЕЛЬ УЗБЕКСКОЙ ФИЛОСОФСКОЙ ШКОЛЫ.....</b>	<b>277</b>
<b>Mamatqulov Bekzod Sherozovich - O'ZBEKISTON SANOAT RIVOJLANISHINING TARIXSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK YONDASHUVLARI ASOSIDA O'RGANILISHI (XIX–XX ASRLAR).....</b>	<b>280</b>
<b>Karimjonova Dilorom Qobuljonovna - O'ZBEKISTON XALQLARINING SHAKLLANISH JARAYONI VA TARIXIY MANBALARDAGI AKS ETISHI.....</b>	<b>284</b>
<b>Bazarbayeva Shohsanam Muratovna - XX ASR BOSHLARI TURKISTON VETERINARIYA TIZIMI: HUJJATLAR VA AMALIYOT.....</b>	<b>287</b>
<b>Shaymurzayev Jafar Isanmurot o'g'li - O'ZBEKISTON-AFG'ONISTON MUNOSABATLARINING TARIXIY ILDIZLARI VA GEOSIYOSIY ASOSLARI .....</b>	<b>292</b>
<b>Soipova Orzugul - "TUSHUNCHALAR TAHLILI" METODIKASINI TARIX FANINING TARKIBIY QISMI BO'LGAN: TARIXSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK MASALALARINI O'RGANISH TIZIMIDAGI SAMARASI.....</b>	<b>297</b>
<b>Suyunova Maftuna Do'sqobil qizi - TURKIY TILLAR TARIXIDAGI DOLZARB MUAMMOLARNI O'RGANISH.....</b>	<b>300</b>
<b>Zarnigor Omonova - TARIXNI O'RGANISH METODIKASI.....</b>	<b>305</b>
<b>Омонова Зарнигор Туражон кизи - КАНОТ КАК ВАЖНЫЙ ИНСТРУМЕНТ ИНТЕГРАЦИИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИЕ.....</b>	<b>310</b>
<b>Ulfatillayeva Sayyora Sobirjon qizi, Haydarova Xurshida – SHARQ ALLOMALARI FALSAFIY QARASHIGA BO'LGAN MUNOSABAT YEVRONA OLIMLARI NIGOHIDA.....</b>	<b>314</b>
<b>TARIXIY KARTOGRAFIYA: XARITALAR VA GLOBUSLAR</b>	
<b>Qo'chqorov Temirbek Baxromjon o'g'li - SOSONIYLAR DAVRIDA MARKAZIY OSIYO TARIXIY GEOGRAFIYASI.....</b>	<b>319</b>
<b>Axmadjonova Shahnoza Tolibjon qizi – TURKISTON ILK O'RTA ASRLARDA: TARIX VA TARIXIY GEOGRAFIYA (VI – VIII VA IX – XIII ASRLAR).....</b>	<b>322</b>
<b>Kalandarova F.A. - "TARIXI SALOTINI MANG'ITIYA" ASARIDA TARIXIY GEOGRAFIYAGA OID MA'LUMOTLAR.....</b>	<b>325</b>
<b>Mahmuda Zokirova Ravshan qizi - BRITANIYA OROLLARIDAGI JOY NOMLARI ORQALI TARIXIY, IJTIMOY VA TILSHUNOSLIK MANBALARNI O'RGANISH.....</b>	<b>329</b>

Numizmatika  
Arxivshunoslik  
Anallar  
Xronologiya  
Tarixiy konsepsiya  
Metodologiya  
Ilmiy tanqid  
Bibliografiya

Maqola so'ngida xulosa qilar ekanmiz, tushunchalar tahlili metodikasi tarix fanini o'qitishda talaba (o'quvchi)larni faol fikrlashga undaydi, ularni tahliliy, mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Ushbu metod orqali talaba (o'quvchi)larda tarixiy jarayonlarning sabab-natijaviy bog'liqligini aniqlash, tushunchalarni tahlil qilish, umumlashtirish mmalakalari shakllanadi. Natijada tarix darslarini o'qitish jarayonlari yanada samarali va qiziqarli o'tadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

- 1.Ishmuhammedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish.-T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
- 1.Tolipov U., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbikiy asoslari. - T.: 2006.
- 2.Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).- T.: Iste'dod, 2008.
- 3.Bobobekov H. Manbashunoslik va tarixiy manbalar tahlili.-T.: Fan,2009
- 4.Egamberdiyev A. Manbashunoslik nazariyasi va amaliyoti.-T.: Universitet, 2013
- 5.Azizxo'jayev N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahurat.-T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018.

### **TURKIY TILLAR TARIXIDAGI DOLZARB MUAMMOLARNI O'RGANISH**

Ilmiy rahbar: Suyunova Maftuna Do'sqobil qizi  
Oriental universiteti, Tillar-2 kafedrasida katta o'qituvchisi  
Ahmadova Sevara Dilshodovna  
Oriental universiteti, Ingliz filologiyasi 301-guruh talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turkiy tillar tarixida uchraydigan dolzarb muammolar, ularning kelib chiqish sabablari va ilmiy tahlili yoritilgan. Turkiy tillarning fonetik, leksik va grammatik jihatlari tarixiy rivojlanish davomida qanday o'zgarishlarga uchrangani, bu o'zgarishlarning tilshunoslik nuqtai nazaridan ahamiyati tahlil qilingan. Muammolarni o'rganishda turli tarixiy manbalar, qadimiy yozma yodgorliklar va zamonaviy lingvistik uslublar asosida tadqiqot olib borilgan. Shuningdek, turkiy tillar tarixini o'rganishda yangi ilmiy yondashuvlarning ahamiyati haqida fikrlar bildiriladi. Maqola turkiy tillar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan tilshunoslar va tarixchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

**Kalit soʻzlar:** Turkiy tillar, tarixiy tilshunoslik, fonetika, leksika, grammatika, yozma yodgorliklar, til oʻzgarishlari, lingvistik tahlil, ilmiy yondashuvlar, dolzarb muammolar.

**Аннотация:** В данной статье освещаются актуальные проблемы, встречающиеся в истории тюркских языков, причины их возникновения и научный анализ. Рассматриваются изменения фонетических, лексических и грамматических особенностей тюркских языков в процессе их исторического развития, а также значение этих изменений с точки зрения языкознания. Исследование основано на различных исторических источниках, древних письменных памятниках и современных лингвистических методах. Кроме того, в статье обсуждается значение новых научных подходов в изучении истории тюркских языков. Статья может быть полезна для лингвистов и историков, занимающихся исследованием тюркских языков.

**Ключевые слова:** тюркские языки, историческое языкознание, фонетика, лексика, грамматика, письменные памятники, языковые изменения, лингвистический анализ, научные подходы, актуальные проблемы.

**Abstract:** This article highlights the pressing issues encountered in the history of Turkic languages, their causes, and their scientific analysis. It examines how the phonetic, lexical, and grammatical features of the Turkic languages have changed throughout historical development and analyzes the significance of these changes from a linguistic perspective. The study is based on various historical sources, ancient written monuments, and modern linguistic methods. Moreover, the article discusses the importance of new scientific approaches in studying the history of Turkic languages. It may be useful for linguists and historians conducting research on Turkic languages.

**Keywords:** Turkic languages, historical linguistics, phonetics, lexicon, grammar, written monuments, language changes, linguistic analysis, scientific approaches, current issues.

**Kalit soʻzlar:** Turkiy tillar, tarixiy tilshunoslik, fonetika, leksika, grammatika, yozma yodgorliklar, til oʻzgarishlari, lingvistik tahlil, ilmiy yondashuvlar, dolzarb muammolar.

Turkiy tillar tarixi insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishida muhim oʻrin tutgan boʻlib, koʻp asrlik madaniy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni aks ettiradi. Turkiy xalqlarning keng geografik hududlarga tarqalishi va turli davrlardagi madaniy aloqalari bu tillarning boy va murakkab rivojlanish jarayonini belgilab berdi. Shunga qaramay, turkiy tillarning tarixiy taraqqiyoti va ularning oʻzaro aloqalari, leksik, fonetik, va grammatik xususiyatlarining oʻzgarish jarayoni hali ham chuqur tadqiqotlarni talab qiladi.

Bugungi kunda turkiy tillar tarixi boʻyicha dolzarb masalalar, jumladan, qadimgi yozma yodgorliklarning oʻrganilishi, dialektologik tadqiqotlar, fonetik oʻzgarishlarning sabablari va ularning natijalari, hamda turkiy tillarning zamonaviy ahamiyati keng muhokama qilinmoqda. Ayniqsa, globallashuv sharoitida bu tillarning saqlanishi va rivojlanishini taʼminlash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, turkiy tillar tarixini ilmiy asosda chuqur oʻrganish va

dolzarb muammolarni aniqlash zamonaviy tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri sanaladi.

Ushbu maqola turkiy tillar tarixidagi eng dolzarb muammolarni yoritishga, ularni tadqiq etishdagi ilmiy yondashuvlarni ko'rsatishga va kelgusidagi izlanishlar uchun istiqbolli yo'nalishlarni belgilashga qaratilgan.

Ona tilimizga ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho meros sifatida e'tibor qaratish, uni asrab-avaylash, boyitish, nufuzini oshirish barchamizning asosiy vazifalarimizdan sanaladi. Qadimgi turkiy til o'zbek va boshqa turkiy tillarning shakllanishiga asos bo'lgan. Ammo qadimgi turkiy tilning o'zi ham ma'lum taraqqiyot bosqichlarini boshidan kechirgan, shakllangan, ma'lum bir qolipga tushgan. Ma'lumki, qadimgi turkiy til davri turkiy xalqlar tili, tarixiylikning ildizlarini bilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Buning natijasida hozirgi adabiy tilning qonuniyatlarini teranroq anglash imkoni yuzaga chiqdi.

Qadimgi turkiy til davri barcha turkiy urug' va qabilalarning umumiy tili sifatida V-X asrlarni o'z ichiga oladi. Qadimgi turkiy til kelib chiqishi va rivojlanishi jihatidan oltoy va xun tili davrlari bilan uzviy bog'langan. Bu davr tili haqida B.Vladimirsov quyidagi fikrlarni bayon qiladi: "...mo'g'ul tili turk va tungus tillari bilan birga o'zlarining bir umumiy ajdodiga ega bo'lganki, uni shartli ravishda oltoy tili deb atash mumkin. Oltoy tilining rivojlanishi jarayonida tashkil topgan mo'g'ul, turk, tungus tillari ma'lum. Bu davr turkiy tillar taraqqiyotining birinchi, eng qadimgi bosqichi bo'lib, fanda u oltoy til birligi nomi bilan yuritiladi. Bu davrda hali turkiy tillar mo'g'ul tillaridan mo'g'ul tillari esa, o'z navbatida, tungus-manchjur tillaridan ajralib chiqmagan edi, ular bir til birligi sifatida qo'llanar edi. Shunday qilib, qandaydir eng qadimgi tilning bo'lganligi taxmin qilinadi. Bu tilga xos umumiy leksik, fonetik va grammatik belgi-xususiyatlar esa hozirgi mo'g'ul, turkiy va tungus-manchjur tillarida saqlanib qolgan".

Mutaxassislarning fikricha, qadimgi davrlardan milodiy V asrgacha bo'lgan muddat "Eng qadimgi turkiy til" davri deb yuritiladi. Adabiyotlarda bu davr oltoy va xun bosqichlariga ajratiladi. Oltoy davrining xarakteri, bu davrda yashagan xalqlar va ularning tili haqida aniq ma'lumotlar beruvchi tarixiy yodgorliklar yo'q. Bu davr tilining ayrim xususiyatlari o'lik tillarning eng qadimgi belgilari bilan hozirgi jonli tillarni tarixiy-qiyosiy usul osida o'rganish orqali taxminiy ravishda aniqlanishi mumkin. Tarixiy taraqqiyot jarayonida tillarning qo'shilishi, ajralib ketishi natijasida oltoy davrining oxirlarida bu tillar tabaqalanadi va ikkita katta til guruhlariga bo'linadi, ya'ni tungus-manchjur va turk-mo'g'ul tillar guruhlarini ajralib chiqadi. O'z navbatida ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning o'sishi, ajralib chiqishi, farqlanish jarayonining davom etishi asosida bu tillarning har qaysisi asta-sekin o'ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlarga ega bo'lib boradi. Buning natijasida xun davrining oxirlarida turk-mo'g'ul til birligidan turk tillari va mo'g'ul tillari ajralib chiqadi. VI asr o'rtalarida turklar kuchayib, yirik bir qabila ittifoqiga birlashdi, qo'shni qabilalarni engib, 552-yilda o'zlarining mustaqil davlati – turk xoqonligini barpo qildi. 555-yilga kelib, Markaziy Osiyodagi xalqlar Manjuriya va Yenisey qirg'oqlarigacha bo'lgan yerlarni o'zlariga qaratib oldilar.

Harbiy va siyosiy qudrati asta-sekin kuchayib borgan turk xoqonligi eftalitlar davlatini tor-mor qildi,

Amudaryo va Orolgacha bo'lgan joylarni, VI asrning 70-yillarida esa Shimoliy Xitoydagi Chjou va Tsi davlatlarini bosib oldi. Xoqonlikning chegarasi Amudaryodan Hindistongacha cho'zilgan edi. Ammo qabilalar o'rtasidagi o'zaro urushlar, Xitoyning kuchayib ketishi va bu urushlarga aralashuvi natijasida VI asrning 80-yillarida turk xoqonligi parchalanib, Sharqiy turk xoqonligi va G'arbiy turk xoqonligiga bo'linib ketdi. Turkiy tillar taraqqiyotining uchinchi bosqichi, ya'ni qadimgi turkiy davrdagi turkiy urug' va qabilalar, ularning tillariga oid juda ko'p yozma manbalar, tarixiy yodgorliklar mavjud. Jumladan, turk xoqonligi tarkibiga kirgan turkiy urug'lar va ularning tillari O'rxun-Yenisey yodgorliklari orqali aniqlangan. Mazkur yodgorliklarning ko'pchiligi rus olimlari tomonidan topilgan. Bular orasida, ayniqsa, sibirlik o'lkashunos N.Yadrinsev tomonidan 1889-yilda Mo'g'ulistondagi O'rxun daryosi bo'ylaridan topgan yodgorliklar katta ahamiyatga ega. Xuddi shunday yodgorliklarning kattagina bir qismi Yenisey daryosining yuqori qismi va Qirg'izistondagi Talas vodiysi, shuningdek, Baykal ko'li atroflari, Lena daryosi sohillaridan topilgan. Yana bir bitik O'ngin bitigidir. Bu bitiktosh Mo'g'ulistondagi O'ngin vodiysidan topilgan. Hozir ham o'rnatilgan joyida turibdi. Yodgorlik VIII asrning birinchi yarmida, taxminan, 732-yilda tiklangan.

J.Klosonning yozishicha, bitik sarkarda Alp Eletmish xotirasiga tiklangan. Uyg'ur yozuvida bitilgan yodgorliklarning eng muhimi "Xuastuanift" bitigidir. Bu bitikning ma'nosi - moniylarning tavbanomasidir. Moniylik dinining falsafiy asari, o'n besh bo'limdan iborat. Ilk o'rta asrlarda asarning eroniy, sug'diy, turkiy, xitoycha versiyalari keng tarqalgan. Bu yodgorlikning turkiy versiyalari uyg'ur, moniy yozuvida bo'lib, ular Sankt-Peterburg, Berlin va Londonda saqlanadi. Turfondan topilgan Sankt-Peterburg nusxasi uyg'ur yozuvida, Turfondan va "Ming budda g'ori" ibodatxonasidan topilgan Berlin va London nusxalari moniy yozuvida bitilgan. Bu yodgorliklarni 1910-1911yillarda ingliz olimi Le Kok Berlin, Londonda, 1963-yilda L.Dmitrieva lotin alifbosida ruscha tarjimai bilan nashr ettirgan. Olimlarning fikricha, asar qadimgi eroniy tillarning birida yaratilgan. Keyinchalik moniy ta'limotini yoyish maqsadida boshqa tillarga o'girilgan. Uning turkiy versiyasi, taxminan, VIII asrda yaratilgan. Asar tilining ko'k turk yodgorliklari tiliga yaqinligi, uyg'ur yozuvli nusxaning xat uslubi, shuningdek, asarning moniy yozuvida ham tarqalganligi ana shundan guvohlik beradi. G'arbiy turk xoqonligi davri (VI-VIII asrlar)da turkiy qabilalar o'troqlasha boshladi. O'troqlashgan turklar shaharda hunarmandchilik, savdo-sotiq bilan shug'ullanadi, cho'l va qishloq joylarda esa dehqonchilik qiladi. Buning natijasida turkiy qabilalarning etnik jihatdan o'zaro yaqinlashuvi va fors tillarida so'zlashuvchi xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari kuchayadi. VIII asrda G'arb va Janubda – Movarounnahr hududi (Samarqand, Buxoro, Choch, Farg'ona, Xorazm)da yashagan aholi va sug'diy-eroniy xalqlar arablar tomonidan bosib olindi, Abbosiylar xalifaligiga qaram bo'lib qoladi. Bu yerdagi xalqlar esa islom dinini qabul qiladi. Bu tarixiy hodisa Movarounnahrda yashagan xalqlarning, shu jumladan, turkiy xalqlarning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga, fan va

adabiyotning rivojiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, IX asrning 2yarmidan, Somoniylar davridan boshlab turkiy xalqlarning ijtimoiy-siyosiy hayotida jiddiy siljishlar sodir bo'ldi. Jumladan, urug'-qabilachilik munosabatlari kuchsizlanadi, feodal munosabatlar rivojlanib bordi. Shu asnoda turk xoqonligi davrida turkiy qabilalar to'liq tabaqalanadi. Markazlashish, o'zaro birlashish jarayonida qo'shilish va ajralib ketish asosida rivojlangan turkiy tillar uyg'urlar hukmronligi davrida umumturkiy adabiy til sifatida shakllandi. Bu adabiy tilning tashkil topishida qarluq-chigil tillari, shuningdek uyg'ur tili asos sifatida qatnashdi, uning taraqqiyotiga ma'lum darajada ta'sir qiladi. X-XII asrlarda Qoraxoniylar hukmronligi davrida qo'llangan, ma'lum darajada me'yorga solingan turkiy adabiy til qisman o'g'uz-qipchoq tillari xususiyatlarini ham o'z ichiga olar edi. Eski o'zbek adabiy tilining xalq tili sifatida shakllanish davri ham mana shu vaqtlarga to'g'ri keladi.

Qadimgi turkiy til asrlar osha shakllanib kelgan juda qadimiy til hisoblanadi. Bu tilning kelib chiqishi hamda rivojlanishini o'z ichiga oluvchi qadimiy yodgorliklar va manbalar juda ko'p. Mazkur manbalar hozirgi kunda ham topilib tilshunos olimlar tomonidan o'rganilmoqda. Turkiy til negizida yangi tillar va til oilalari shakllangandir. Eski o'zbek tilining paydo bo'lishi va shakllanishiga ham shu til asos bo'lib xizmat qilgan.

Turkiy tillar tarixi mazmunan boy va murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ushbu maqola turkiy tillarning shakllanishi, rivojlanishi va ular bilan bog'liq dolzarb muammolarni o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Tilshunoslik va tarixiy tadqiqotlarning ahamiyati: Turkiy tillarni o'rganish nafaqat tilshunoslik uchun, balki xalqlarning tarixiy-madaniy merosini anglashda ham muhimdir. Shu jihatdan, tarixiy manbalarni tahlil qilish va lingvistik xususiyatlarni aniqlash bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

2. Dialekt va lahjalar xilma-xilligi: Turkiy tillarning keng hududlarga tarqalganligi sababli dialekt va lahjalar o'rtasidagi farqlar katta ahamiyatga ega. Ushbu xilma-xillikni tizimli o'rganish va tasniflash til birligini ta'minlash uchun muhimdir.

3. Zamonaviy muammolar va tahdidlar: Globalizatsiya, boshqa tillarning ta'siri, va ayrim turkiy tillarning yo'qolib ketish xavfi ushbu tillarni himoya qilish va rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishni talab qilmoqda.

4. Til birligi va hamkorlik masalalari: Turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniy va ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, umumiy lug'at va grammatik asoslarni yaratish, hamda o'quv dasturlarini ishlab chiqish bu yo'nalishdagi asosiy vazifalardandir.

Xulosa qilib aytganda, turkiy tillar tarixini o'rganish nafaqat ilmiy-amaliy, balki madaniy-ma'naviy ahamiyatga ega. Bu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar turkiy xalqlarning o'zaro yaqinlashuvi va milliy merosni asrab-avaylashga xizmat qiladi. Shu sababli, mazkur masalalar har tomonlama tadqiq etilishi va tegishli choralar ko'rilishi zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. –Т.: Ўқитувчи, 1982.

2. Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008.
3. Малов С. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. -М.-Л., 1951.
4. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009.
5. Sanaqulov U. O'zbek yozma adabiy tili fonetik, morfologik me'yorlarning ilk shakllanishi va taraqqiyoti bosqichlari. – T.: Navro'z, 2015.
6. Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. -Тошкент, 2006.
7. В. Abdushukurov. "Qadimgi turkiy til" Toshkent – 2009.

### TARIXNI O'RGANISH METODIKASI

Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Zarnigor Omonova

Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

Ismoilova Umidaxon

+998 90-533-77-40

umidaismoilova398@gmail.com

**Annotatsiya:** Tarixni o'rganish metodikasi jamiyat va insoniyatning o'tmishini anglashda muhim ahamiyatga ega. Bu metodika o'tmish voqealarini nafaqat qayta tiklash, balki ularni turli manbalar asosida chuqur tahlil qilishga imkon beradi. Tarixiy faktlarni o'rganishda tadqiqotchi tanlagan yondashuv natijalar aniqligi va obyektivligini belgilaydi. Misol uchun, ilmiy tarixshunoslik, arxeologik qazilmalar, etnografik ma'lumotlar va yozma manbalar tarixning yangi qirralarini ochishga yordam beradi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar, masalan, sun'iy intellekt va raqamli arxivlar, tarixni o'rganish jarayonini soddalashtirmoqda. Tarix nafaqat ilmiy intizom, balki kelajakni shakllantiruvchi vosita sifatida ham qimmatlidir. O'tmishni anglash orqali insoniyat o'z xatolarini tushunadi va yangicha yo'nalishlarni belgilaydi.

**Kalit so'zlar:** Tarix, metodika, tarixni o'rganish, tarixshunoslik, arxeologiya, etnografiya, yozma manbalar, texnologiyalar, sun'iy intellekt, raqamli arxivlar, interaktiv vositalar, o'tmish, tarixiy tadqiqotlar, virtual reallik, xalqaro tarix.

**Annotation:** The methodology of studying history plays a crucial role in understanding the past of society and humanity. This methodology not only reconstructs past events but also allows for their in-depth analysis based on various sources. The approach chosen by the researcher determines the accuracy and objectivity of the results. For instance, scientific historiography, archaeological excavations, ethnographic data, and written records help uncover new facets of history.

Additionally, modern technologies such as artificial intelligence and digital archives are simplifying the process of historical research. History is valuable not only as an academic discipline but also as a tool for shaping the future. By understanding the past, humanity learns from its mistakes and identifies new directions.